

**REANIMATSIYA BO'LIMIDA OG'IR SEPSIS VA SEPTIK SHOK  
BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA INTENSIV TERAPIYANING  
XUSUSIYATLARI**

*Idibekov Javohirbek Raximovich*

*Respublika tez tibbiy yordam Buxoro filiali Reanimatsion shifokor*

**Maqsad:** Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limida (RITB) og'ir sepsis va septik shok bilan og'rigan bemorlarni davolash usullarini hamda gemodinamik ko'rsatkichlar barqarorligini tahlil qilish.

**Material va usullar:** Tadqiqot shoshilinch tibbiy yordam markazining reanimatsiya bo'limida o'tkazilgan bo'lib, unda 25 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan (o'rtacha yosh  $52 \pm 1,5$  yosh) 60 nafar bemor (ularning 55 foizi erkaklar) ishtirok etdi. Shulardan 25 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan bemorlar 15% ni, 41-55 yoshlilar 35% ni, 56-75 yoshlilar 50% ni tashkil etdi. Bemorlar kasallik og'irligiga ko'ra ikki guruhga bo'lindi: og'ir sepsis (35 kishi) va septik shok (25 kishi) bilan og'rigan bemorlar [1, 2]. Tadqiqot jarayonida kasallikning rivojlanish xavf omillari, o'zgarishlar va yondosh patologiyalar o'rganildi. Bemorlarda o'pka yallig'lanishi (45%), qorin bo'shlig'i a'zolari infeksiyalari (35%) va siydik yo'llari infeksiyalari (20%) birlamchi infeksiya o'chog'i sifatida aniqlandi. APACHE II shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich  $18 \pm 2$  ballni tashkil etdi [3]. Yondosh kasalliklardan 30% bemorlarda qandli diabet, 40% da yurak ishemik kasalligi va I-II darajali arterial gipertenziya aniqlangan.

**Natijalar:** Tadqiqotning farmakoterapevtik va klinik tahlillari shuni ko'rsatdiki, dastlabki 6 soat ichida barcha bemorlarga maqsadli yo'naltirilgan intensiv terapiya (EGDT) o'tkazildi [4]. Bemorlarning 100% i empirik keng spektrli antibiotiklarni, 85% kristalloid eritmalarini (Ringer, 0.9% NaCl), 35% i albumin eritmalarini qabul qildi. Vazopressor yordamga muhtoj bo'lgan septik shok guruhidagi bemorlarning 95% iga birinchi qator dorisi sifatida



noradrenalin (o'rtacha doza 0.3-0.5 mkg/kg/min) va 15% iga miokard qisqaruvchanligini oshirish maqsadida qo'shimcha ravishda dobutamin buyurildi [1, 5].

O'tkazilgan intensiv terapiya va infuzion-transfuzion davo natijasida og'ir sepsis guruhida o'rtacha arterial bosim (O'AB) dastlabki  $55 \pm 5$  mm.sim.ust. dan  $72 \pm 4$  mm.sim.ust. gacha ( $p < 0.05$ ) ko'tarildi. To'qimalar gipoperfuziyasi ko'rsatkichi bo'lgan laktat klirensi dastlabki 6 soat ichida 45% bemorlarda maqsadli darajaga (2 mmol/l dan pastga) tushdi [4]. O'tkir nafas yetishmovchiligi sababli sun'iy nafas berish apparatiga (O'SIV) 40% bemor ulangan bo'lib, apparatda bo'lishning o'rtacha davomiyligi  $5 \pm 1$  kunni tashkil etdi.

**Xulosa:** Shunday qilib, reanimatsiya sharoitida og'ir sepsis va septik shok bemorlarini erta diagnostika qilish va maqsadli yo'naltirilgan intensiv terapiyani (adekvat infuzion va vazopressor terapiya) zudlik bilan boshlash gemodinamik ko'rsatkichlarni tezroq barqarorlashtirishga yordam berdi. Noradrenalinning asosiy vazopressor vosita sifatida qo'llanilishi septik shok holatidagi bemorlarda O'AB ni maqsadli darajada ( $\geq 65$  mm.sim.ust.) barqaror ushlab turishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi [1, 5]. Bu esa, o'z navbatida, to'qimalar gipoperfuziyasi va ko'p a'zolar yetishmovchiligi (POL) asoratlarini hamda o'lim xavfini sezilarli darajada kamaytirishga imkon yaratdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Evans L., Rhodes A., Alhazzani W. va boshq. Surviving sepsis campaign: international guidelines for management of sepsis and septic shock 2021. Intensive Care Med. 2021; 47(11): 1181-1247.

2. Савельев В.С., Гельфанд Б.Р. Сепсис: классификация, клинико-диагностическая концепция и лечение. Москва, 2017.

3. Knaus W.A., Draper E.A., Wagner D.P., Zimmerman J.E. APACHE II: a severity of disease classification system. Crit Care Med. 1985; 13(10): 818-829.

4. Rivers E., Nguyen B., Havstad S. va boshq. Early goal-directed therapy in the treatment of severe sepsis and septic shock. N Engl J Med. 2001; 345(19): 1368-1377.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Sepsis va septik shokni tashxislash va davolash bo'yicha klinik qo'llanma. Toshkent, 2022.

